PARLAMENT FAOLIYATINI YORITISHDA YETAKCHI XORIJIY DAVLATLAR VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI O‘RTASIDAGI HAMKORLIK TAJRIBASI

Avazbek Arabboyev
Xalqaro Nordik universiteti
magistratura bosqichi talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20496742

Annotatsiya. Mazkur maqolada parlament faoliyatini yoritishda milliy va yetakchi xorijiy davlatlar axborot xizmatlari tajribasi qiyosiy tahlil qilingan. Xususan, Fransiya, Ispaniya, Rossiya Federatsiyasi va Ukraina parlamentlarining axborot siyosati, press-pullari, rasmiy ommaviy axborot vositalari hamda raqamli platformalar orqali faoliyatni yoritish mexanizmlari o‘rganilgan. Shuningdek, parlament ochiqligi va shaffofligini ta’minlashda axborot xizmatlarining institutsional o‘rni hamda ularning amaliy tajribalari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari parlament axborot siyosatini takomillashtirish va ochiqlik darajasini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: parlament, axborot xizmati, press-pul, parlament ochiqligi, ommaviy axborot vositalari, Milliy assambleya, Senat, Davlat Dumasi, Oliy Rada, qonunchilik jarayoni, parlament kommunikatsiyasi, axborot siyosati, shaffoflik, demokratik boshqaruv.

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi demokratik jamiyat rivojining eng muhim shartlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, parlament – qonun chiqaruvchi va vakillik organi sifatida jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy va huquqiy jarayonlarning markazida turadi. Shu bois parlament faoliyati haqida jamoatchilikni tezkor, aniq va ishonchli axborot bilan ta’minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Parlament axborot xizmatlari ushbu jarayonda asosiy vositachi sifatida maydonga chiqadi. Ular nafaqat ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi, balki parlament ichki faoliyatini tizimli ravishda yoritish, hujjatlar va qarorlarni keng jamoatchilikka yetkazish, shuningdek, ochiq muloqot platformalarini shakllantirish vazifasini ham bajaradi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, parlament faoliyatini yoritish ko‘pkanalli axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. Bunda maxsus akkreditatsiyadan o‘tgan jurnalistlar guruhi (press-pul), parlamentga tegishli telekanallar, rasmiy gazetalar va raqamli platformalar muhim o‘rin tutadi. Ushbu tizim parlament va jamiyat o‘rtasida ochiq axborot almashinuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada Fransiya, Ispaniya, Rossiya Federatsiyasi va Ukraina parlamentlari misolida parlament axborot xizmatlari faoliyati, ularning tashkiliy tuzilmasi hamda amaliy tajribalari tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Germaniya Federativ Respublikasi parlamenti tajribasi

Germaniya Federativ Respublikasining parlament tizimi ikki palatali tuzilmaga ega bo‘lib, u Bundestag va Bundesratdan iborat. Bundestag mamlakatning oliy qonun

chiqaruvchi organi bo‘lib, bevosita xalq tomonidan saylanadi va qonunchilik jarayonini amalga oshiruvchi markaziy institut hisoblanadi. Bundestag tarkibida bir nechta fraksiyalar va mustaqil deputatlar korpusi faoliyat yuritadi. Umumiy deputatlar soni 736 nafarni tashkil etadi. Siyosiy jihatdan parlamentda hukumat bilan koalitsiyada faoliyat yurituvchi fraksiyalar hamda muxolifat fraksiyalari mavjud bo‘lib, ular siyosiy muvozanatni ta’minlaydi. Har bir fraksiya huzurida alohida kotibiyat tashkil etilgan bo‘lib, ushbu tuzilmalar Bundestag tomonidan subsidiya asosida moliyalashtiriladi va o‘rtacha 100–200 nafar xodimni birlashtiradi.

Qonunchilik jarayonini samarali tashkil etish maqsadida Bundestag tarkibida 25 ta qo‘mita faoliyat yuritadi. Ushbu qo‘mitalar 14–49 nafar deputatdan iborat bo‘lib, qonun loyihalarini ko‘rib chiqish va tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Germaniya Asosiy qonunida (Konstitutsiyasida) ayrim asosiy qo‘mitalar, jumladan Xalqaro aloqalar, Mudofaa, Yevropa Ittifoqi ishlari hamda Petitsiyalar qo‘mitalari belgilangan. Bundan tashqari, ayrim qo‘mitalar, xususan Oila, qariyalar, ayollar va yoshlar, Sport, Sog‘liqni saqlash hamda Mehnat qo‘mitalari faoliyatini doimiy ochiqlik tamoyillari asosida yuritishi talab etiladi. Har bir qo‘mita o‘z faoliyati doirasida quyi qo‘mitalar tashkil etish huquqiga ega.

Bundestag va deputatlar faoliyatini tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida parlament administratsiyasida qariyb 3000 nafar xodim faoliyat yuritadi. Administratsiya 6 ta asosiy departamentdan iborat bo‘lib, ular tarkibida boshqarma va bo‘limlar tizimi shakllantirilgan. Shuningdek, “Qo‘mita boshqarmasi” 25 ta qo‘mita kotibiyati faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. E’tiborli jihati shundaki, Bundestag administratsiyasi qonun loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etmaydi, balki faqat tashkiliy va texnik ko‘mak funksiyasini bajaradi.

Parlament faoliyatini axborot jihatdan yoritish maqsadida administratsiya tarkibida uchta asosiy yo‘nalishdagi bo‘lim faoliyat yuritadi: “Onlayn xizmat va Parlament TV”, “Ijtimoiy media” hamda “Parlament yangiliklari” bo‘limlari. “Onlayn xizmat va Parlament TV” bo‘limi Bundestag yalpi majlislarini rasmiy veb-sayt, SmartTV ilovasi hamda telekanallar orqali jonli efirda uzatadi va arxivlashtiradi. Shuningdek, maxsus studiya orqali fraksiya va qo‘mita rahbarlari ishtirokida tahliliy ko‘rsatuvlar tayyorlanadi. “Ijtimoiy media” bo‘limi parlamentning rasmiy “Twitter” va “YouTube” sahifalarini yuritadi. Ayrim ijtimoiy tarmoqlar Germaniya hududida joylashmaganligi sababli, ular bo‘yicha rasmiy sahifalar cheklangan. “Parlament yangiliklari” bo‘limi esa parlamentdagi voqealarni tizimli qayta ishlash va rasmiy axborot kanallariga yetkazish vazifasini bajaradi.

Bundestagning rasmiy veb-portali parlament faoliyati, qonunchilik jarayonlari, deputatlar tarkibi, sessiyalar va qo‘mitalar faoliyati to‘g‘risida keng qamrovli axborot manbai hisoblanadi. Sayt orqali yalpi majlislar kun tartibi, qonun loyihalari bazasi, arxiv materiallar hamda jonli translyatsiyalar taqdim etiladi. Shuningdek, jamoatchilik va sayyohlar uchun parlament binosiga tashrif buyurish, majlislarda ishtirok etish yoki amaliyot o‘tash imkoniyatlari mavjud. Matbuot va OAV uchun alohida bo‘lim orqali akkreditatsiya, press-relizlar va aloqa ma’lumotlari taqdim etiladi.

Bundestag administratsiyasi tarkibida “Tashrif buyuruvchilar xizmati” va “Jamoatchilik bilan ishlash” bo‘limlari ham faoliyat yuritadi. Ushbu bo‘limlar Reyxstag binosiga tashrif buyuruvchilar bilan ishlash hamda parlament faoliyatini keng jamoatchilikka sodda va tushunarli shaklda yetkazishga xizmat qiladi. COVID-19 pandemiyasigacha bo‘lgan davrda parlament binosiga tashrif buyuruvchilar soni yiliga o‘rtacha 2,4 million kishini tashkil etgan.

Bundestagdan tashqari, Germaniya parlament tizimining muhim tarkibiy qismi Bundesrat hisoblanadi. Bundesrat federal yerlar manfaatlarini ifoda etuvchi va federal tuzilma bilan yerlar o‘rtasidagi siyosiy aloqani ta’minlovchi konstitutsiyaviy organ bo‘lib, 69 ovoz huquqiga ega a’zolardan iborat. A’zolar soni hududlar aholisi soniga qarab belgilanadi va har bir yer o‘z vakillarini hukumat a’zolari orasidan tayinlaydi.

Bundesrat faoliyatining asosiy qismi qo‘mitalar tizimi orqali amalga oshiriladi. Jami 16 ta qo‘mita mavjud bo‘lib, har bir yer barcha qo‘mitalarga o‘z vakillarini yuboradi. Qonun loyihalari aynan ushbu qo‘mitalarda ko‘rib chiqiladi, biroq amaliy ishlar ko‘pincha vazirlik va idoralarning vakolatli mutaxassislari tomonidan olib boriladi. Bundesrat kotibiyatida 200 nafar xodim faoliyat yuritib, ular qonunchilik jarayoniga aralashmagan holda faqat tashkiliy va texnik ko‘mak vazifasini bajaradi.

Bundestag singari Bundesrat administratsiyasida ham axborot faoliyatini yurituvchi uchta asosiy bo‘lim mavjud bo‘lib, ular parlament majlislarini jonli efirda yoritish, ijtimoiy tarmoqlarni yuritish hamda yangiliklarni muvofiqlashtirish bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari, Bundesrat ilmiy xizmat departamenti deputatlar buyurtmasiga muvofiq tahliliy va statistik ma’lumotlar tayyorlash bilan shug‘ullanadi.

Buyuk Britaniya parlamenti tajribasi

Buyuk Britaniya parlamenti ikki palatali tuzilmaga ega bo‘lib, Lordlar palatasi va Vakillar palatasidan iborat. Vakillar palatasi to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov asosida shakllanadi va 650 nafar deputatdan iborat bo‘lib, parlament faoliyatida asosiy qonunchilik tashabbuslarini amalga oshiradi. Lordlar palatasi esa tayinlov va merosiy a’zolik asosida shakllanib, 677 nafar a’zodan iborat bo‘lib, u asosan qonun loyihalarini ko‘rib chiqish va tahririy nazorat funksiyasini bajaradi.

Parlament faoliyati kuchli institutsionallashgan axborot tizimi asosida yuritiladi. Vakillar palatasida akkreditatsiyadan o‘tgan 300 dan ortiq mahalliy va xorijiy jurnalistlar faoliyat yuritadi. Press-pool tizimi asosida ishlovchi jurnalistlar parlament majlislari, qo‘mita yig‘ilishlari va brifinglarda ishtirok etadi. Parlament binosi jamoatchilik uchun ochiq bo‘lib, ayrim majlislarni bevosita kuzatish imkoniyati mavjud.

Axborot siyosati nuqtayi nazaridan Buyuk Britaniya parlamenti yuqori darajada ochiqlik tamoyiliga asoslanadi. Yalpi majlislar va qo‘mita yig‘ilishlari maxsus parlament telekanali orqali jonli efirda uzatiladi hamda arxiv shaklida saqlanadi. Shuningdek, har bir deputatning shaxsiy faoliyati bo‘yicha ma’lumotlar ochiq platformalarda muntazam yangilanib boriladi.

Parlament matbuot xizmati qat’iy tartibga ega bo‘lib, press-pool uchun maxsus axloq kodeksi ishlab chiqilgan. Jurnalistlar uchun texnik imkoniyatlar yaratilgan bo‘lsa-da, foto va video tasvirga olish ayrim hollarda cheklangan bo‘lib, bu materiallar faqat rasmiy so‘rov asosida taqdim etiladi.

Amerika Qo‘shma Shtatlari Kongressi tajribasi

Amerika Qo‘shma Shtatlari Kongressi ikki palatali tuzilmaga ega bo‘lib, Vakillar palatasi va Senatdan iborat. Vakillar palatasi 435 nafar deputatdan, Senat esa 100 nafar senatordan tashkil topgan bo‘lib, ular qonunchilik jarayonining asosiy subyektlari

hisoblanadi. Kongressda siyosiy partiyalar o‘rtasidagi muvozanat qonun ijodkorligida muhim rol o‘ynaydi.

AQSH Kongressida parlament axborot tizimi yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, uch yo‘nalishda akkreditatsiya markazlari faoliyat yuritadi: tele-radio, kundalik bosma matbuot va davriy nashrlar. Ushbu tizim orqali 3500 nafarga yaqin milliy va xorijiy jurnalistlar Kongress faoliyatini yoritadi.

Kongress majlislari ochiqlik tamoyiliga asoslangan holda 24 soat ishlovchi C-SPAN va C-SPAN2 telekanallari orqali jonli efirda uzatiladi. Bu tizim Vakillar palatasi va Senat faoliyatini to‘liq kuzatish imkonini beradi hamda parlament shaffofligini ta’minlaydi.

Shuningdek, Kongress faoliyati rasmiy veb-saytlar va raqamli platformalar orqali muntazam yoritib boriladi. Har hafta oldindan majlislar kun tartibi e’lon qilinadi hamda qonun loyihalari, qo‘mita ishlari va parlament eshituvlari bo‘yicha keng qamrovli axborot taqdim etiladi.

Fransiya Respublikasi parlamenti tajribasi

Fransiya parlamenti ikki palatali tizimga ega bo‘lib, Milliy assambleya va Senatdan iborat. Milliy assambleya 577 deputatdan tashkil topadi va 5 yil muddatga to‘g‘ridan to‘g‘ri saylanadi. Senat esa 348 senatordan iborat bo‘lib, bilvosita saylov asosida 6 yil muddatga shakllantiriladi. Parlament tizimi yarim prezidentlik boshqaruv shakli doirasida faoliyat yuritib, ijro hokimiyati bilan muvozanatlashgan qonunchilik mexanizmini ta’minlaydi.

Fransiyada parlament axborot siyosati yuqori darajada institutsionallashgan bo‘lib, Milliy assambleya va Senatning alohida press-xizmatlari mavjud. Ushbu xizmatlar parlament faoliyatini ommaviy axborot vositalariga tezkor yetkazish, rasmiy bayonotlar tayyorlash, qo‘mita yig‘ilishlarini yoritish hamda jurnalistlar bilan ishlash funksiyalarini bajaradi. Milliy assambleyada 300 ga yaqin mahalliy va yuzdan ortiq xorijiy jurnalistdan iborat akkreditatsiyalangan press-pool tizimi shakllangan.

Fransiya parlamenti faoliyatini yoritishda raqamli media va televizion platformalar muhim o‘rin tutadi. Xususan, parlamentning rasmiy telekanali — **LCP Assemblée Nationale** orqali yalpi majlislar, eshituvlar va tahliliy dasturlar doimiy ravishda efirga uzatiladi. Bundan tashqari, parlamentning rasmiy veb-portallari orqali qonun loyihalari, deputatlar faoliyati va qo‘mita ishlariga doir to‘liq ochiq ma’lumotlar taqdim etiladi. Bu tizim parlament ochiqligini ta’minlashning muhim institutsional modeli sifatida baholanadi.

Ispaniya parlamenti tajribasi

Ispaniya parlamenti (Cortes Generales) Senat va Deputatlar Kongressidan iborat ikki palatali tizimga asoslangan. Deputatlar Kongressi 350 nafar a’zodan, Senat esa 266 nafar senatorlardan tashkil topgan bo‘lib, ular 4 yil muddatga saylanadi. Parlament konstitutsiyaviy monarxiya sharoitida faoliyat yuritadi.

Ispaniya parlamentining axborot siyosati ochiqlik va jamoatchilik bilan bevosita muloqot tamoyillariga asoslanadi. Parlament matbuot xizmati qonun ijodkorligi jarayonini yoritish, rasmiy axborotlarni tarqatish va media bilan aloqalarni muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. Parlament binosida akkreditatsiyalangan jurnalistlar uchun maxsus press-markazlar faoliyat yuritadi.

Axborot tarqatish tizimi an’anaviy OAV bilan bir qatorda raqamli platformalarga ham tayangan. Parlamentning rasmiy sayti orqali yalpi majlislar translyatsiyasi, qonun loyihalari holati va deputatlar faoliyati ochiq e’lon qilib boriladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali parlamentning kommunikatsion faolligi oshirilgan bo‘lib, bu jamoatchilik bilan bevosita interaktiv aloqa shaklini yaratadi.

Rossiya Federatsiyasi parlamenti tajribasi

Rossiya Federatsiyasi parlamenti ikki palatali tuzilishga ega bo‘lib, Federatsiya Kengashi va Davlat Dumasidan iborat. Davlat Dumasi 450 deputatdan tashkil topgan bo‘lib, 5 yil muddatga saylanadi. Federatsiya Kengashi esa hududiy vakillik organi sifatida federal subyektlar manfaatlarini ifoda etadi.

Rossiyada parlament axborot siyosati kuchli markazlashgan va davlat tomonidan muvofiqlashtirilgan tizim asosida yuritiladi. Davlat Dumasi huzurida maxsus matbuot xizmati faoliyat yuritib, parlament faoliyatini yoritish, rasmiy bayonotlar berish va media bilan ishlashni tashkil etadi. “Duma TV” parlament telekanali orqali yalpi majlislar, qo‘mita yig‘ilishlari va siyosiy debatlar doimiy yoritiladi.

Shuningdek, “Parlamentskaya gazeta” rasmiy nashr sifatida qonunchilik jarayonlarini tizimli yoritadi. Raqamli platformalar, rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlar orqali parlament faoliyati jamoatchilikka yetkaziladi. Bu tizim markazlashgan axborot siyosati va davlat kommunikatsiyasi modeliga asoslangan.

Ukraina Oliy Radasi tajribasi

Ukraina Oliy Radasi bir palatali parlament bo‘lib, 450 deputatdan iborat va 5 yil muddatga saylanadi. Parlament faoliyati ko‘p partiyaviy tizim asosida tashkil etilgan bo‘lib, fraksiyalar qonun ijodkorligi jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Ukrainada parlament axborot tizimi “Rada TV” telekanali, rasmiy veb-sayt va “Golos Ukrainy” rasmiy gazetasi orqali amalga oshiriladi. Bu platformalar orqali yalpi majlislar, qonun loyihalari muhokamalari va qo‘mita faoliyati yoritiladi.

Biroq 2022-yildan boshlab xavfsizlik sharoitlari sababli yalpi majlislarning jonli efirda uzatilishi qisman cheklangan bo‘lib, axborot siyosati ko‘proq rasmiy bayonotlar va kechiktirilgan translyatsiyalar orqali amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan, raqamli platformalar orqali parlament ochiqligini saqlab qolish yo‘nalishida ishlar davom ettirilmoqda.

XULOSA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy parlamentlar faoliyatini yoritishda ko‘pkanalli, institutsional va raqamli axborot tizimlari muhim rol o‘ynamoqda. Fransiya, Ispaniya, Rossiya va Ukraina tajribasi parlament axborot xizmatlari nafaqat an’anaviy OAV bilan, balki maxsus telekanallar, rasmiy nashrlar va onlayn platformalar orqali ham faoliyat yuritishini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, akkreditatsiyalangan press-pul tizimi parlament faoliyatining ochiqligini ta’minlashda samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi parlament va jamoatchilik o‘rtasidagi axborot almashinuvini sezilarli darajada tezlashtirmoqda.

Umuman olganda, parlament faoliyatini yoritishda xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ochiqlik, shaffoflik va tezkorlik demokratik boshqaruv tizimining ajralmas qismidir. Ushbu tajribalarni o‘rganish va milliy amaliyotga tatbiq etish parlament axborot siyosatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.